

**ASOS HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA MA’NOLI KOMPONENT  
HISOBLANSA HAM, QO‘SHIMCHA ESKIRGAN YOKI FAOL  
BO‘LMAGAN BIRLIKLAR**

**Nigora Yodgorova**

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy-tadqiqot ishimizda asosi hozirgi o‘zbek tilida ma’noli component hisoblansa ham, qo‘shimcha eskirgan yoki faol bo‘lmagan bir qancha birliklarni tahlil ostiga olganmiz.

**Annatation.** In this research work, we have analyzed a number of additional outdated or inactive units, even though the basis is considered a meaningful component in the current Uzbek language.

**Аннотация.** В данной исследовательской работе мы проанализировали ряд дополнительных устаревших или неактивных единиц, хотя основа считается значимым компонентом в современном узбекском языке.

**Kalit so‘zlar:** eski o‘zbek tili, hozirgi o‘zbek tili, component, affiks, so‘z yasalishi, lingvistik fakt.

**Ключевые слова:** староузбекский язык, современный узбекский язык, компонент, аффикс, словообразование, лингвистический факт.

**Key words:** old Uzbek language, modern Uzbek language, component, affix, word formation, linguistic fact.

Eski o‘zbek tilida hozirgi o‘zbek adabiy tilidan farqlanuvchi yasalmalar miqdori ko‘pchilikni tashkil qiladi. Avvalo, ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

1. Asos ham, qo‘shimcha ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida ishlatilmaydigan birliklar.
  2. Asos hozirgi o‘zbek tilida ma’noli komponent hisoblansa ham, qo‘shimcha eskirgan yoki faol bo‘lmagan birliklar.
  3. Qo‘shimcha hozirgi o‘zbek tilida ishlatilsa ham, asos eskirgan birliklar.
- Mazkur tip birliklariga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

*G’am* so‘zi eski o‘zbek tilida ham hozirgi ma’nolarni anglasa ham, quyidagi birliklar u hozirgi o‘zbek adabiy tilida ishlatilmaydigan qo‘shimchalar vositasida yasalgan. To‘g‘rirog‘i ularning tarkibidagi qo‘shimchalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida iste’moldan chiqqan. So‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar ma’nolari asos anglatgan lug‘aviyliklar ma’nosiga nisbatan aniqlanib boriladi:

*G’amangez* – g’am qo‘zgatuvchi, g’am soluvchi:

Meni hijronda o'kar xalq va lekin ojiz

Zor ko'nglumga erur boda *g'amangez* yana. (Alisher Navoiy)

*G'amandud* – g'amgin, qayg'uli:

Ayog'in o'pti Shopuri *g'amandud*,

Chiqordi qo'ynidin maktubi maqsud.

Tiyra uy ichida ul *g'amandud*,

To'lg'anib o'ziga o'ylakim dud. (Alisher Navoiy)

*G'amando'z* – g'amli, qayg'uli, dardli, alamli:

Jonim evida oncha g'aming naqdini yig'dim,

Kim bo'ldi ko'ngul maxzani bu joni *g'amando'z*. ;

...*g'amando'z* zindonidag'i mehnat anduxtlarni navozish kibriyosi ayvoni panohig'a sig'urmoq; jigarso'z hodisakim, istimo'i ko'zga mujibi xunborliq va *g'amando'z* voqeakim, ittilo'i jonra boisi afgorlig' erdi – etishti. (Alisher Navoiy)

*G'amafruz* – g'amu g'ussani yozuvchi, g'am va hasratni tarqatuvchi:

Tulu' aylab chu mehri olamafruz,

Debon, k-ey partaving bazmi *g'amafruz*.

*G'amgusor* – g'amni ketkazuvchi, g'amdan xalos qiluvchi, xursand qiluvchi, ko'ngil ochuvchi:

Usru g'amgindur Navoiy may tila, ey piri dayr,

Bo'l anga soqiyliq aylab *g'amgusor*, ey mug'bacha. (Alisher Navoiy)

*G'amzada* – g'amgin, qayg'uli:

Takovaringg'a barir qonidin hino bog'la,

Itingga *g'amzada* jon rishtasin rasan qilg'il.

Ushbu baytdagi *g'amzada* so'zi tarkibidagi *zada* forsiy zadan – urmoq fe'lining o'tgan zamon sifatdoshi bo'lib, aynan urilgan, demak, *g'amzada* g'amdan ezilgan ma'nosini beradi. Lekin aynan shu baytdagi shu so'z maktab darsligi (8-sinf. Adabiyot)da *g'amza* (ko'z qarashi) payti deb izohlangani ajablanarli.

*G'amzadoy//g'amzudo* – qayg'uni ketkazuvchi, g'amdan qutqaruvchi:

Mutribi tarabafzo, mug'anniyi *g'amzudo* ikkalasiga holudard ahli jon qilurlar fido. (Alisher Navoiy)

*G'amkada* – g'amgin dunyo, qayg'uli dahr:

O'zungni asrama bir lahza mutribu maysiz,

Desang bu *g'amkada* ichra bo'lay surur bila. (Alisher Navoiy)

*-kada* boshqa ko'pgina qo'shimchalar kabi mustaqil so'zdan shakllangan bo'lib, toponimlar tarkibidagi *kad // kent // kas* kabi o'rin-joy ma'nosini hosil qiladi va eski o'zbek tilidagi *otashkada, dehkada* kabi so'zlarda mavjud.

*G'amnok* – g'amgin, g'amli, qayg'uli; oshiq:

Dayr aro davron g'amidin qochmisham, ey mug'bacha,  
Bir mug'oma jom ila shod ayla bu g'amnokni. (Alisher Navoiy)

Eski o'zbek tilida shu asosida g'amnok aylamoq – g'amga solmoq, xafa qilmoq fe'li shakllangan:

Turfa ko'rkim, javri birla dog'i g'amnok aylamas,  
Garchi rahmu iltifoti birla qilmas shod ham. (Alisher Navoiy)

*G'amobod* – g'amli, g'amga boy so'zida *obod* alohida ma'noli komponent, hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud affiksoid sanalsa ham, uning "boy, mavjud" ma'nosi hozirgi tilimizga xos emas va u hozirda faqat o'rin-joy oti yasab, sifat hosil qilishi ko'zga tashlanmaydi. Shuning uchun bu so'z ushbu tipga mansub deb topishni lozim bildik:

Madrasa kunjini *g'amobod* etib,  
Tongdin oqshomg'acha faryod etib.

*G'amparvard* – g'am ichida o'sgan, umri g'am bilan o'tgan:

O'lsang ul yo'l ichra ranju dard ila,  
Jismi zoru joni g'amparvard ila. ;  
Ki ishqimda aningdek fardi olam,  
Vafo bobida g'amparvardi olam.

*G'amparvardlik* – g'am bilan o'sganlik, umri g'am bilan o'tganlik:

G'amidin topmagay mingdin biri, gar ishq yuz ming yil,  
Balo ahlig'a gohi g'amda g'amparvardliq qilsa.

*G'amsirisht* – g'amli, g'amgin tabiat:

Dedi Xudhud: K-ey najandi g'amsirisht,  
Zotinga g'amdin bahona sarnavisht.

*Qal'akan* – choh qazuvchi:

O't ul chohdinkim, bo'lur shu'lazan,  
Bo'lur iltihobi aning qal'akan.

*Qal'avor* – qal'aga o'xshash, qal'a kabi:

Yana kunguru burj etib qal'avor,  
Temurlar bila aylabon ustuvor.

*Qadahno'sh* – may ichuvchi:

Ey Navoiy, qoru ermas bo'lsa yuz ming jon fido,  
Gar qadahno'shum iki la'li mayidin tutsa qo'sh.

*Qadahpaymo* – qadah tutuvchi, soqiy:

Topmasa la'li mayig'a bodapaymolig' ko'ngul,  
Xushturur nazzora ham la'li qadahpaymosig'a.

*Qadahpaymoliq* – may ichuvchilik, mayga berilish, mayxo'rlik:

Kim yigitlikda qilur tovba, yigitlik uldur,

Qori bulgʻor soqolin qilsa qadahpaymoliq.

*Qadahpolo* - may suzgich:

Xirad mulkini sabrim kishvaridek buzdung, ey soqiy,  
Bu selikim ravon qilding qadahpolo sahobidin.

*Qadahxoʻr* – may ichuvchi, mayxoʻr:

Oʻzin tifli nargis qadahxoʻr qilib  
Ki limu terisini sogʻar qilib.

*Qadahchash* – qadah totuvchi, may ichuvchi:

Kadahchashqa xarobot oʻldi marqum,  
Varaʻkashgʻa munojot oʻldi maqsum.

*Qalamgun* – qalam rangli, kora:

Magar huro sochin qildi kalamgun sabhasin kogʻaz,  
Qilurda sunʻ naqqoshi nigorim suratini tasvir.

*Qalamdon* – qalamdon, qalam soladigan idish:

Oyogʻimning qalami zaʻfidin andoqki qalam,  
Qota qolgʻan teri davrida qalamdon yangligʻ.

*Qalamzan* – yozuvchi, kotib; mansabdor:

Kalamzangʻa boʻlub surmak kalam fan,  
Yonida korfarmo ham qalamzan.  
Tiya kalamzan chu topib ul sharaf,  
Buqalamunlugʻni qilib bartaraf.

*Qalamrav* – mulk, qoʻl ostidagi erlar: “Mavlono Sulton Ali... kitobat mulkining qalamravi yakqalami anga musallamdur”.

*Qalamtarosh* - qalamtarosh, pichoq:

Ey, qamar, sen qalamtaroshim yigʻ,  
Qil hilolingning uchidin anga tigʻ.

*Qabrpoʻsh* – qabr ustiga yopiladigan parda:

Sipehr atlasin qabrpoʻsh ettilar,  
Necha kun fironu xuroʻsh ettilar.

*Qadamkash* - yul yuruvchi, qadam bosuvchi:

Qosid dagʻi xayl aro qadamkash,  
Ul erga deginki ul sitamkash.

*Qadamfarsoy* - koʻp yurishdan oyoqqa zaxmat etkazish; qadam quyish:

Bu taraf Zayd oʻlub, zaminpaymoy,  
Jonni qutqargʻali qadamfarsoy.

*Qadamfarsoliq* – koʻp yurishdan oyoqqa zaxmat etkazishlik, qadam qoʻyishlik, yunalishlik:

Ishdur sanga haq sori qadamfarsoliq,

Qilma tilabon lahv jahonpaymoliq.

*Qadahkash* – mayxo‘r, may ichuvchi; may beruvchi:

Kezib Chin davrida shodu *qadahkash*,

Aningdek to‘rt mavzi’ qildilar xash.

Sen qon yutub, el bo‘lub *qadahkash*,

Eldin sanga etmayin dami xush.

Shoh davlatidin *qadahkashu* guharposh

Kim, derlar ani Muhammad ko‘kaltosh.

Demak, eski o‘zbek tili so‘z yasaliş tizimini tahlil qilar ekanmiz, har qo‘shimchaning taraqqiyoti, ma‘no qirralariga alohida e‘tibor qaratish lozim. SHu bilan har bir qo‘shimcha doirasida ular vositasida hosil bo‘lgan yasalmalar tahliliga e‘tibor qaratish eski o‘zbek tili so‘z boyligini kengroq ko‘zdan kechirish, ijodkorlarning badiiy mahorati baholash imkonini ham beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsiddin bin Xalaf Tabriziy. Burhoni qote’. – Tehron: Amiri Kabir. – S. 559.
2. Komilov N. Jon va jonon mojarosi // Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar. – Toshkent: Kamalak, 1991. –B. 94.
3. ۰۷۷..3ابن سینا. ۷از انتشارات مجمع ناشر کتاب. شماره « فرهنگ شاهنامه» دکتور رضا زاده شفق .